

TURLI MUDDATLARDA MAYORAN NAVLARINING MUHIM XO‘JALIK BELGILARINI NAMOYON BO‘LISHI

Qayumov Muslimbek Yo‘ldoshevich

Sabzavotchilik va polizchilik mutaxassisligi magistranti,
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada turli muddatlarda mayoran navlarining muhim xo‘jalik belgilarini namoyon bo‘lishi haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mayoran, moyli ekinlar, introduksiya, issiqxona, ko‘chatlar.

Qishloq xo‘jaligi sohasida bir qator yangiliklarni yaratish, aholi tomonidan kun sayin ortib borayotgan talablarni to‘liq qondirishda yangi navlarni joriy etish, hamda iqlimlashtirish asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ma‘lumki qishloq xo‘jaligi, meditsina va boshqa sohalarda efir moyli ekinlar ancha yuqori baholanadi. Hozirgi vaqtda 3000 turdan ortiq efir moyli ekinlarning 100 ga yaqin turi yetishtiriladi.

Ana shunday ekinlardan biri mayoranning 9 ta: “Байкал”, “Кулинар”, “Лакомка”, “Массандра”, “Прекрасный”, “Садовник”, “Сканди”, “Термос”, “Тушинский семко” navlari Rossiya Federatsiyasi seleksion yutuqlari davlat reestriga kiritilgan.

Hozircha O‘zbekiston Respublikasi hududida yetishtirishga ruxsat etilgan qishloq xo‘jaligi ekinlari davlat reestriga ushbu qimmatli ekinning birorta ham navi kiritilmagan. Oqsil va energetik moddalar bilan bir qatorda biologik aktiv moddalarga boy mahsulotlarni iste‘mol qilish sog‘lom ovqatlanish tarzining asosini tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida muhim sabzavot ekinlarini introduksiya qilish va tarkibi biologik aktiv moddalarga boy sabzavot ekinlarini yaratishdek tadqiqotlarning muhim yo‘nalishini belgilab berdi. Juda ko‘plab mamlakatlarda tarkibi biologik aktiv moddalarga boy yangi noan‘anaviy ekinlarni ishlab chiqarishga joriy etish programmasi mavjud va ayrim mamlakatlarda bu muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Mayoran biokimyoviy tarkibi jihatidan inson salomatligi uchun foydali ekin hisoblanadi. Hozirgi kunda oziq-ovqat sanoatimiz uchun deyarli barcha mayoran xom ashyosi xorijda sotib olinmoqda. Bunga esa, mayoran navlarining hozirgacha ekilmayotganligi, urug‘chilikning yo‘lga qo‘yilmaganligi, chetdan olingan urug‘larning esa kam ekilishi va ularda hosildorlikning kam bo‘lishi sabab bo‘lmoqda. Bu muammolarni hal etish uchun mamlakatimizda mayoran o‘simligining urug‘chiligini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

<https://conferencea.org>

Krivenkov L.V. (2002) ta'kidlashicha, O'zbekiston quruq subtropik sharoiti urug'chilik uchun eng ma'qul bo'lib, unda bir va ikki yillik ekinlardan sifatli urug'lar olinishi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi davlat reestriga bu ekinlar kiritilmagan. 2022-yil Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi introduksiya ko'chatzorida respublikamizda kam tarqalgan sabzavot ekinini mayoran ekinining 2 xil navidan tanlab olingan Termos navidan material sifatida foydalanildi. (1-jadval)

1-jadval Mayoran ekinining yig'ilgan nav namunalari to'plami

№	Ekin turi	Nav nomi	Kelib chiqishi
1	Mayoran	Termos	Rossiya, 2019
2	Mayoran	Baykal	Rossiya, 2019

Mayoran ekinining o'suv davri davomida unib chiqishi (10-75%) ni aniqlash bo'yicha fenologik kuzatuvlar amalga oshirildi. (2-jadval)

Ko'chatlar ikki muddatda etishtirildi. Ko'chatlar isitilmaydigan issiqxonada kasseta usulida 100 % biogumusga ekildi.

Ekinlar I (kuzgi) muddatda 2021-yil 15-oktyabrda, II (bahorgi) muddatda 2022-yil 25-yanvarda ekildi.

2-jadval Mayoranning unib chiqish muddatlari, 2021-2022 y.y.

№	Ekin va nav nomi	Ekish muddati	Unib chiqishi, sana	
			10%	75%
1	Mayoran	I	22.10.2021	25.10.2021
2	Termos	II	04.02.2022	07.02.2022

Dastlabki fenologik kuzatuvlar ekinlarni ekish, dastlabki va yoppasiga unib chiqish fazasida olib borildi.

I muddatda ekilgan Mayoran ekinlarining ko'chatlari joriy yilning 12 fevral kunida, II muddatda ekilgan ekinlar 28 mart kuni 70x25 sm ekish sxemasida ochiq dalaga ekildi. Tajriba 4 qaytariqli. Hisob bo'lmachasi maydoni 4,5 m², bo'lmacha 2 qatorli. Bo'lmachada o'simliklar soni 20 ta.

Ko'chatlar organik va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirildi. Fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchovlar olib borilib, dastlabki natijalar tahlil etildi.

Adabiyotlar

1. Deans S.G., Svoboda K.P. The antimicrobial properties of marjoram (*Origanum majorana* L.) volatile oil Flavour Fragrance J, 1990; T. 5. № 3, P. 187-190.
2. Novak J.; Bitsch C; Mam M.; Langbehn J.; Pank F.; Bluthner W.D.; Marchart R.; Junghanus W.; Franz C. Hibridsortensystem bei Majoran (*Origanum majorana* L.) Ber. Uber die Arbeitstagung 1999/ Vereinigung osterr. Pflanzenzucht. Jrdning, 2000, - P. 77-82
3. Ладыгина Г. Майоран колбасная трава.// Сад и огород, 1995, вып. 5. - С. 51-52.